

KASBIY FAOLIYATDA TARBIYACHINING KREATIVLIGI

Komilova Yulduz Ikromovna

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani

18- DMTT da tarbiyachi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kasbiy faoliyatda tarbiyachining kreativligi haqida soʻz borgan.*

Kalit soʻzlar: *ijodiy faoliyat, ijod, kreativlik, ijodkorlik qobiliyati, izchil, sifatlar, kreativ tafakkur, kreativ yondashuv.*

Abstract: *This article talks about the creativity of the educator in professional activity.*

Key words: *creative activity, creation, creativity, creative ability, consistent, qualities, creative thinking, creative approach.*

Аннотация: *В данной статье говорится о творчестве воспитателя в профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *творческая деятельность, творчество, креативность, творческая способность, последовательность, качества, творческое мышление, творческий подход.*

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni taxlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod maxsulotlarini yaratishga aloxida eʼtibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni xal qilish ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda xissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog oʻz oldiga muammoli masalalarni quyish orkali mavjud bilimlari va xayotiy tajribalariga zid boʻlgan dalillar bilan toʻqnash keladi. Buning natijasida oʻz ustida ishlash, mustakil oʻqib oʻrganishga nisbatan extiyoj sezadi. Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyixalarni amalga oshirishi unda kreativlik potensialini yanada rivojlantiradi. Pedagog oʻz-oʻzidan ijodkor boʻlib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati maʼlum vaqt ichida izchil oʻqib- oʻrganish, oʻz ustida ishlash orqali shakllanadi.

Zamonaviy taʼlim barcha turdagi taʼlim muassasalarida faoliyat yuritayotgan raxbar, tarbiyachi, pedagoglarning ijodkor boʻlishlarini takozo etmokda.

“Kreativlik” tushunchasi oʻzida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. Garb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noanʼanaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, xazil- mutoyiba tuygʻusi va erkinlik mavjud bulishiga eʼtiborni qaratadilar.

Ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb xisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin:

- birinchidan, aksariyat pedagog-tarbiyachilar xam aslida "kreativlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatishini yetarlicha izoxlay olmaydilar;

- ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan bexabarlar.

Ayni urinda shuni aloxida sayd etib utish joizki, xar bir shaxs tabiatan kreativlik sobiliyatiga ega. Xush, ular o'zlarida kreativlik sobiliyati mavjudligini sanday namoyon eta olishlari mumkin. Bu urinda Patti Drapeau shunday maslaxat beradi: Agarchi o'zingizni kreativ emasman deb xisoblasangizda, xozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga saratilgan darslarni tashkil eta boshlashingizni maslaxat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor va kreativ bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki darslarni kreativlik ruxida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir.

Patti Drapeau nuqtai nazariga kura kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan xar tomonlama fikrlash sanaladi. Xar tomonlama fikrlash ta'lim oluvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda kuplab goyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farkli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina tugri goyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushoxada yuritishda masala yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bulmaydi. Binobarin, bir va xar tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek axamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda ta'lim oluvchi yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng makbul natijani kafolatlovchi birgina to'gri yechimda tuxtaladi (bir tomonlama fikrlash).

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan xolda "kreativlik" tushunchasini quyidagicha sharxlash mumkin:

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, xis- tuyg'ularida, muayyan turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit xolda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iktidorning muxim omili sifatida xam aks etadi. Kolaversa, kreativlik zexni utkirlikni belgilab beradi, "ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi".

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon buladi. Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bulgan ijod maxsulotlari sanab utiladi.

Multimedia - bir necha kurinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, rakamli, ovozli, musikal, video, audio, fotografiya, xarakterlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taallukli umumiy tushuncha

Elektroi albom - rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar xamda ularning izoxlarini o'zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to'plam

Elektroi atlas (yun. "Atlas" - birinchi bo'lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) - muayyan o'quv moduli (o'quv fani) bo'yicha tavsiya etilgan va o'ziga xos grafik tasvirlarga ega bo'lib, o'quv maqsadlariga kura foydalaniladi

Rakamli video lavhalar - o'quv moduli (o'quv fani) bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yordam beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan 3D ulchamdagi zamonaviy o'quv manbai

Virtual steidlar - 1) real ob'ekt, predmet, jarayon, voqea va xodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va b. shakldagi axborot, jarayon xamda virtual muxitlarni yaratish, saklash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita

Imitatsion virtual treiajyor (ingl. "train" - "tarbiyalamoq", o'qitmoq", "mashq qildirmoq") - elektron shakldagi o'quv-mashqlantiruvchi qurilma bo'lib, u yordamida mexnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m-n: mashina (mexanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki xarbiy texnika sirlarini o'zlashtirish) ko'nikmalari shakllantiriladi, ko'nikmalar malakalarga aylantiriladi xamda xosil bo'lgan malakalar takomillashtiriladi

Multimedia mahsulotlari - o'zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o'quv materialini tinglovchilarga yetkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (maxsulot)lar

Audio va video vizual materiallar - o'quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlovchi materiallar.

Video aiimatsiyalar - chizilgan (rasimli) yoki kichik xajmli obraz (xajmiy, kugirchok yoki uyinchokli ob'ekt)larni xaari (oddiy yoki vatman kogozi)lar xamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proektor, protsesor va b. kurilmalar) yordamida takdim etilishi

Xulosa qilib aytganda, Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bulishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib

boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yunaltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muxim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni taxlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod maxsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga karatilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida. 08.08.2018 y. PQ-3904.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika (nopedgogik oliy ta'lim muassasalari uchun)- TDPU. 2013.
4. Azizxodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: TDPU 2003. 175 b.
5. Abdullayeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
6. . www.tdpu.uz
7. www.pedagog.uz